

# **Yangi yo'naliш bo'yicha parvozlar: Toshkent - Batumi - Toshkent**

**2022 27 April**

Uzbekistan Airways O'zbekiston va Gruziya hududlari o'rtaсidagi to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivoljantirish uchun yangi yo'naliшlarni yo'lga qo'yishni davom etmoqda.

2022-yil 21-maydan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent - Batumi - Toshkent xalqaro yo'naliшhi bo'yicha mavsumiy parvozlarni amalga oshiradi.

Toshkentdan kurort shahriga aviaqatnovlar haftasiga ikki marta - chorshanba va shanba kunlari quyidagi jadval bo'yicha amalga oshiriladi:

chorshanba kunlari:

Toshkentdan uchish: 14:30

Batumiga qo'nish: 17:15

Batumidan uchish: 18:45

Toshkentga qo'nish: 23:00

shanba kunlari:

Toshkentdan uchish: 06:35

Batumiga qo'nish: 09:20

Batumidan uchish: 10:50

Toshkentga qo'nish: 15:05

Muhim: Gruziyaga kirish uchun emlanganlik haqidagi sertifikatning asl nusxasini taqdim etishingiz kerak. Aks holda, 10 va undan katta yoshdagi yo'lovchilar PZR-testining manfiy natijasini taqdim etishlari kerak (amal qilish muddati 72 soat). Test

oldindan tasdiqlanishi va

[https://registration.gov.ge/pub/form/8\\_protocol\\_for\\_arrivals\\_in\\_georgia/tk6157/](https://registration.gov.ge/pub/form/8_protocol_for_arrivals_in_georgia/tk6157/)  
havolasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Toshkent – Batumi yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 2 386 569 so'mdan (bagajsiz) va 2 746 353 so'mdan (bagaj bilan), Toshkent – Batumi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha esa 4 070 059 so'mdan (bagajsiz) va 4 621 728 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlari 27.04.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Toshkentdan Batumiga aviaqatnovlar uchun aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.

Eslatib o'tamiz, 2019-yil o'rtalaridan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent – Tbilisi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftasiga ikki marta – seshanba va juma kunlari muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda.